



## QUR'ONNING NOZIL BO'LISHI VA UNING TILOVATIDA USLUBLAR

*Rahmatov Iqboljon Izzatullo o'g'li*

*O'zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi "Islomshunoslik va islam sivilizatsiyasini o'rghanish ICESCO" kaferasi tayanch doktoranti*

**Annotatsiya:** maqolada Qur'on tilovati ilmida ohangning qo'llanilishi borasida turli xil qarashlar keltiriladi.

**Kalit so'zlar:** Qur'on, ohang, joiz, nojoiz, maqomot, tilovat, ohang, ruxiyat.

Darhaqiqat, Jabroil (a.s) Qur'oni Rabbul izzat — Alloh taolodan olgach, uni Rasululloh (s.a.v)ga nozil qilardi. U zotga Qur'oni qanday olgan bo'lsa, xuddi shunday yetkazardi.

Alloh taolo marhamat qiladi:

(فَلْ مَنْ كَانَ عَدُوا لِجَبْرِيلَ فَإِنَّهُ نَزَّلَهُ عَلَى قَلْبِكَ بِإِذْنِ اللَّهِ مُصَدِّقًا لِمَا بَيْنَ يَدَيْهِ وَهُدًى وَبُشْرَى لِلْمُؤْمِنِينَ)

(*Baqara surasi, 97-oyat*)

Yana marhamat qiladi:

(وَإِنَّهُ لَنَزَّلَ رَبِّ الْعَالَمِينَ نَزَّلَ بِهِ الرُّوحُ الْأَمِينُ عَلَى قَلْبِكَ لِتَكُونَ مِنَ الْمُنذِرِينَ بِإِسَانٍ عَرَبِيٍّ مُّبِينٍ)

(*Shuaro surasi, 192–195-oyatlar*)

Bu oyatlarda Alloh taolo Jabroil (a.s)ni vahiyining omini, ya'ni unga xiyonat qilmaydigan, uni o'zgartirmaydigan zot deb ta'riflaydi. Qur'on nozil qilingan til esa "**lug'at Arabiyya mubin**" — aniq, ravshan arab tilidir. Unda noaniqlik, chalkashlik yoki og'ish yo'q.



Rasululloh (s.a.v)ga Jabroil (a.s) Qur'onne o'qib berganda, Alloh taolo U zotga uni tinglab olishni, so'ngra aynan shunday tarzda o'qishni buyurgan.

Alloh taolo marhamat qiladi:

(لَا تُحِرِّكْ بِهِ لِسَانَكَ لِتَعْجَلْ بِهِ ○ إِنَّ عَلَيْنَا جَمْعَهُ وَقُرْآنَهُ ○ فَإِذَا قَرَأْنَاهُ فَاتَّبِعْ قُرْآنَهُ)  
(Qiyomat surasi, 16–18-oyatlar)

Rasululloh (s.a.v) bu buyruqni eng go'zal tarzda ado etdilar. Qur'onne qanday o'rgansalar, xuddi shunday yetkazdilar, hech bir harfni ortiqcha yoki kam aytmaganlar. Bu haqiqatni Alloh taolo Quyidagicha tasdiqlaydi:

(وَلَوْ تَقَوَّلْ عَلَيْنَا بَعْضَ الْأَقَوِيلِ ○ لَأَخْدُنَا مِنْهُ بِالْيَمِينِ ○ ثُمَّ لَقَطَعَنَا مِنْهُ الْوَتِينَ ○ فَمَا مِنْكُمْ مِنْ أَحَدٍ عَنْهُ حَاجِزٌ)  
(Haqqa surasi, 44–47-oyatlar)

Alloh taolo aytadi:

(يَا أَيُّهَا الرَّسُولُ بَلَّغْ مَا أُنزِلَ إِلَيْكَ مِنْ رَبِّكَ) (Moida surasi, 67-oyat)

Rasululloh (s.a.v) Allohnинг bu amriga mutlaqo itoat qilib, Qur'onne sahobalarga xuddi qanday nozil qilingan bo'lsa, shunday o'rgatdilar. U zot Alloh taoloning:

(وَرَتَّلَ الْقُرْآنَ تَرْتِيلًا) (Muzzammil surasi, 4-oyat) — degan amrini ham so'zsiz ado etdilar.

Shuning uchun sahabalar (r.a) Qur'onne Rasululloh (s.a.v)dan tirik, yangi nozil bo'lgandek holatda qabul qildilar, uni yod oldilar — nafaqat sahifalarda, balki qalblarida. Bu esa ushbu ummatning xos sifati bo'lib, ilgari o'tgan kitoblarda: “Injillari qalblaridadir” degan ta'rif bilan zikr qilingan.



Muslim rivoyat qilgan sahih hadisi qudsiyda Alloh taolo Rasululloh (s.a.v)ga shunday degan:

*“Men sizga suv ham artib yubora olmaydigan Kitobni nozil qilaman.”*  
Bu, Qur'on qalblarda muhofaza qilinishiga ishoradir.

Alloh taolo marhamat qiladi:

**(بَلْ هُوَ آيَاتٌ بَيِّنَاتٌ فِي صُدُورِ الَّذِينَ أَوْتُوا الْعِلْمَ)** (*Ankabut surasi, 49-oyat*)

Tarix davomida Qur'onne yodlab, tajvid bilan aniqlikda o'qib, avloddan-avlodga uzatib kelgan kishilar — qurrolar bo'lган. Ular Qur'onne harfi-harfiga shayxlaridan olgan va o'z shogirdlariga ham aynan shunday ishonch bilan yetkazgan. Ular Qur'onne ba'zida huzun ila, ba'zida zavq ila, yana ba'zida shijoat va shukuh bilan o'qiganlar. Ular Qur'onne Allohdan qo'rqqan holda go'zal ovozda tilovat qilganlar, ammo musiqiy ohanglarni aralashtirmaganlar. Chunki Qur'on bunday ohanglardan ulug'roqdir.

Qur'onning o'ziga xos "musiqasi" bor — bu harflarning haq-huquqi, hijolarning cho'zilishi, tovushlar tafovuti, ya'ni shiddat, rixvat, bayniyya, hams, jahr, qalqala, tafashshiy, tafxim va tarqiq orqali yuzaga chiqadi.

Ammo tarix davomida ayrimlar Qur'onne moziqiy ohanglar asosida, musiqaga o'xshash qiroat bilan o'qiy boshladilar. Ular Qur'onne noto'g'ri shaklda, Qur'on an'analariga zid tarzda talqin etib, xalqqa yoqish, ularni hayajonga solish orqali maqsadlariga erishmoqchi bo'ldilar. Ulardan ayrimlari boylik yoki obro' orttirish uchun bunday yo'lga o'tganlar.

Alloh ularga rahmat qilsin, Abu Muzohim al-Xaqoniy (vafoti 325h) shunday degan:



“Ey Qur’on qariysi, qiroatingni go ‘zal qil, Alloh senga mukofotni ikki baravar qiladi. Har bir tilovat qiluvchi haqiqiy qori bo ‘lavermaydi, har kimning o‘qishi to ‘g‘ri bo ‘lavermaydi. Biz esa qiroatni hijolatli va to ‘g‘ri kishilardan oldik, bu ulug‘ sunnatdir.”

Imom ash-Shotibiy (vafoti 590h) esa yetti qariy va ularning rivoyatchilari haqida:

“Ularning eng afzallarini tanlab olishgan edi, Qur’oni Karim ular uchun tirikchilik vositasi emas edi,” — deb ta’rif bergen.

Zamonaviy vositalar — ovoz va video yozuv texnikalari paydo bo‘lgach, Qur’on turli ovoz egalari tomonidan yozib olina boshlandi. Ulardan ba’zilari mutaqqiy, ayrimlari esa yarim mutaqqiy, yana ayrimlari esa mutlaqo tajvidni bilmaydilar. Ammo ko‘pchiligi Qur’onni **musiqiy ohanglarga** muvofiq o‘qishga harakat qiladilar. Shuning uchun tajvid ilmini hidlamagan ko‘plab oddiy odamlar “Falonching qiroati ajoyib”, “Men unisini eshitishni yaxshi ko‘raman” kabi baholarga beriladilar.

Ba’zilari hatto Qur’ondagi:

﴿وَنَقُولُ نُوقُوا عَذَابَ الْحَرِيق﴾ (Oli Imron surasi, 181-oyat)

– degan ogohlantiruvchi oyatni musiqiy ohangda, g‘am-qayg‘u yoki ibodat emas, balki zavq bilan o‘qiydi. Atrofidagilar esa bunga “Alloh!” deb hayratlanishadi.

Agar ular ushbu oyat ma’nosini chuqur anglasalar edi, yuraklari titrar, ko‘zlaridan yosh oqardi. Chunki bu oyatda do‘zax azobi haqida ogohlantirish bor.



Bugungi kunda jamiyatda "qori" deyilganida odamlar xayolida motamlarda Qur'on o'qib, evaziga pul oladigan kishilar gavdalananadi. Bu esa Qur'onning asl vazifasi — hidoyat manbai bo'lishidan chekinishdir.

### **“Lahn” so‘zining lug‘aviy va istilohiy ma’nosi**

Arab tilida “لحن” (lahn) so‘zining bir nechta lug‘aviy ma’nosi mavjud. Ibn Manzur (رحمه الله) o‘zining mashhur “Lisan al-‘Arab” asarida bu so‘zning quyidagi ma’nolarini keltiradi: ohang, talaffuzdagi xatolik, fahm (tushunish), kinoya va g‘ina’ (qo‘sish).

Unga ko‘ra, “الْحَنُّ مِنَ الْأَصْوَاتِ الْمَصْوَغَةِ الْمَوْضُوعَةِ” – ya’ni, “lahn – bu tuzilgan va yaratilgan ohangli tovushdir”. U quyidagicha davom etadi:

“أَلَّهُنَّ فِي قِرَاءَتِهِ إِذَا غَرَّدَ وَطَرَبَ فِيهَا بِالْأَلْحَانِ” Agar kishi Qur'on o‘qishda g‘ina’ qilsa, ya’ni kuylasa va lahn bilan o‘qisa, u ‘lahn’ qilgan bo‘ladi.”

Payg‘ambarimiz Muhammad (s.a.v) hadislarida esa quyidagicha buyrilgan:

أَفْرَوْا الْقُرْآنَ بِلُحُونِ الْعَرَبِ وَأَصْوَاتِهَا، وَإِيَّاكُمْ وَلُحُونَ أَهْلِ الْفِسْقِ وَالْكِبْرِ، فَإِنَّهُ سِيجِيُّعُ مِنْ بَعْدِيِّ ”  
”أَقْوَامٌ يُرْجِعُونَ بِالْقُرْآنِ تَرْجِيعَ الْغَنَاءِ وَالنُّؤُحِ وَالرَّهْبَانِيَّةِ، لَا يُجَاوِزُ حَنَاجِرَهُمْ

Mazmunan: “Qur’onni arabablarning ohanglari va tovushlari bilan o‘qinglar. Fisq-fujur va kibr ahli ohanglariga ergashmanglar. Menden keyin bir qavm keladi, ular Qur’onni kuylab o‘qiydi, ashula, yig‘i va rohiblik ohanglariga o‘xshab. Ularning qiroati halqumlaridan o‘tmaydi.”

Bu hadisda ochiq-oydin Qur’onni g‘ina’ ohanglari bilan emas, arab tilining tabiiy talaffuzi bilan o‘qish buyrilmoqda.

Ibn Barriyning tasnifi



Ibn Barriy va boshqa ulamolar “لحن” so‘zining olti asosiy ma’nosini sanab o‘tganlar:

1. I‘rob xatolari (ya’ni, nahviy xatoliklar);
2. Lug‘aviy o‘zgarish;
3. Qo‘sishq va ohang (g‘ina');
4. Fahm va farosat;
5. Kinoya (ishora bilan gapirish);
6. Ma’no yoki mazmun.

Ibn Manzur bu borada yana shunday deydi:

“وَالْتَّحْنُونُ الَّذِي هُوَ الْغَنَاءُ وَتَرْجِيعُ الصَّوْتِ وَالتَّطْرِيبُ” “Lahn bu – g‘ina’, tovushni tebratish va ohangdorlik bilan aytishdir.”

U hadisni quyidagicha izohlaydi:

“أَفْرُوا الْقُرْآنَ بِلِحْنِ الْعَرَبِ وَأَصْوَاتِهَا، وَإِيَّاكُمْ وَلِحْنُ أَهْلِ الْعُشْقِ” “Qur’onni arablarning lahnları va tovushlari bilan o‘qinglar; ishq va ashula ahlining lahnlaridan saqlanalinglar.”

Bu ogohlantirish orqali Qur’onning arabiylar asosida, musiqiy lahnlar siz o‘qilishi ta’kidlanmoqda. Yani musiqaga o‘xshash qiroatlar yahudiy va nasroniy larning kitob o‘qish ohanglariga yaqin bo‘lib qolgan, bu esa musulmonlarga xos emas.

### **Qur’onni musiqiy ohanglarda o‘qish haqida salaf ulamolari bayonoti**

Ayman Rushdiy Suvayd “Al-bayan lihukmi qiroat al- Qur'an al-karim bil-alhan” Qur’onni musiqiy ohang va maqomat bilan qiroat qilishni man etuvchi dalillar va 50 da ortiq ishonchli shaxslarning qavllarini hujjat sifatida keltirgan. Quyida ularidan bir nechtasi ko’rsatib o’tiladi:



Imom Abu Bakr Ahmad ibn Muhammad ibn Harun al-Hallol al-Hanbaliy (vafoti 311 h.) o‘zining “al-Amr bil-ma’ruf va-n-nahy ‘an al-munkar” nomli kitobida “Bob: Qiroatdagi ohanglar (al-aḥān) haqida zikr” sarlavhasi ostida Imom Ahmad ibn Hanbal (j.a) dan bir nechta hadis va ta’limotlarni keltirgan. Ularni ixchamlik maqsadida quyidagicha taqdim qilamiz:

Abdulloh ibn Ahmad ibn Hanbal rivoyat qiladi:

“Otamdan (ya’ni, Imom Ahmaddan) ohang bilan o‘qish haqida so‘rashganida, u shunday degan:

"Muḥaddas" (ya’ni yangilik, bid’at) – agar bu insonning tabiiy tabiat bo‘lmasa. Ya’ni bu tabiiy bo‘lsa, masalan, Abu Muso (r.a) kabi bo‘lsa, unda boshqa.”

Muhammad ibn Ja’far rivoyat qiladi:

Abu al-Horish bizga xabar berdi: Abu Abdullohga (ya’ni Imom Ahmadga) ohang bilan Qur’on o‘qish va tarannum (kuylash) haqida so‘z ochildi. U shunday dedi:

“Bu – bid’at.”

So‘rashdi: “Axir ular yig‘ilib eshitishadi-ku?”

U javob berdi: “Alloh madad bersin.”

Abu Bakr al-Marvaziy aytadi:

Imom Ahmadga ohang bilan o‘qish haqida so‘rashganlarida u:

“Bu bid’at. Eshitilmasin.” – deb javob bergen.

Hasan ibn Jahdar rivoyat qiladi:



Abdulloh ibn Yazid al-'Anbariy aytadi: Bir kishi Ahmad ibn Hanbaldan:

“Ohang bilan o‘qish haqida nima deysiz?” – deb so‘radi.

Imom undan so‘radi: “Isming nima?”

U dedi: “Muhammad.”

Imom dedi: “Xo‘sh, seni ‘Yaa Muhaaammad’ (ya’ni cho‘zib, musiqiy ohangda) deb aytishsa, sen xursand bo‘lasanmi?”

Abu Bakr al-Marvaziy yana shunday deydi:

Abdulrahmon at-Tabib aytadi: Imom Ahmadga ohang bilan o‘qish haqida so‘radim.

U menga dedi:

“Ey Abu al-Fazl! Ular Qur’onni qo‘sinq qilib oldilar! Ular Qur’onni qo‘sinq qilib oldilar! Bundaylardan eshitma!”

Muhammad ibn Ja’far aytadi:

Abu al-Horish bizga xabar berdi:

Imom Ahmad shunday degan:

**“Qur’on qiroatining oddiy, soddaligi yoqadi. Bu ohanglar esa – yoqmaydi.”**

### **Qiroatga bid’at kiritish haqida salafdan nasihatlar**

Imom Abu Bakr Ibn Mujahid (vafoti 324 h.) o‘zining mashhur “as-Sab’ah fi al-Qira’at” asarida Qur’on qiroatining sunna ekani, u yerda yangilik yoki ixtiro



yo‘qligiga oid bir qancha hadislarni sanadlarini qisqartirgan holda keltirgan.  
Ularning ba’zilari:

1. Abdulloh ibn Mas’ud (r.a) dedilar:

“Ittabi’u va la tabtadi’u faqad kufitum” – “Ergashinglar, bid’at kiritmanglar, sizlarga yetarli narsa berilgan.”

2. Huzayfa ibn al-Yaman (r.a) dedilar:

“Ey qori’lar jamoasi! Allohdan qo‘rqinglar! Oldingi zotlarning yo‘lidan boringlar. Allohga qasamki, agar to‘g‘ri bo‘lsangizlar, ulardan uzoq o‘zib ketasizlar. Ammo sizlar o‘ngga, chapga og‘dingizlar – endi adashganlaringiz aniq.”

3. Ali ibn Abu Tolib (r.a) rivoyat qiladilar:

“Rasululloh (s.a.v) sizlarga Qur’onni qanday o‘rgatgan bo‘lsalar, shunday o‘qishni amr qiladilar.”

4. Muhammad ibn al-Munkadir (r.a) deydilar:

“Qur’on o‘qish bir sunnatdir. Uni keyingi kishi avvalgisidan o‘rganadi.”

### **Qiroatdagi musiqiy ohanglarga qarshi Imom Ajouriy (r.a) bayoni**

Imom Abu Bakr Muhammad ibn al-Husayn al-Ajouriy (vafoti 360 h.) o‘zining “Axloq Humalat al-Qur’an” asarida (77-bet) quyidagilarni yozadi:

“Men Qur’onni musiqiy lahn va g‘ina’ga asoslangan ovozlar bilan o‘qishni makruh sanayman. Bu – ko‘plab ulamolar huzurida makruhdur. Masalan: Yazid ibn Harun, al-Asma’iy, Ahmad ibn Hanbal, Abu Ubayd al-Qosim ibn Sallam, Sufyan ibn ‘Uyayna (rahimahumullah) kabi ko‘plab ulamolar bunga qarshi bo‘lganlar.”



“Ular qori’ga Qur’onni o‘qiyotganda ko‘z yoshlari bilan, xushu bilan, qalb bilan xudolikka chorlashni buyuradilar.”

Imom al-Qurtubiy (j.a., vaf. 671-hijriy) o‘zining mashhur tafsiri “*Al-Jami‘ li Ahkami-l-Qur’an*” asarining muqaddimasida (jild 10, 1–17-betlar) Qur’onni tarannum bilan, musiqa ohangida o‘qish haqidagi bahsni muhim ilmiy muhokama qilgan. U bu masalada ijozat bergen ba’zi mutaassib bo‘lmagan kishilarning dalillariga qat’iy va ilmiy rad bergen. U yerda keltirilgan matndan qisqartirib, bu yerga joylashtirish mumkin bo‘lgan qismini quyida keltiramiz:

Imom al-Qurtubiy (j.a.) deydilar: “Ziyod an-Namiriydan rivoyat qilinadi: u bir guruh qorilar bilan Anas ibn Malik (r.a.)ning huzuriga keldi. Ulardan biri o‘qish uchun da’vat etildi. U baland ovozda va tarannum bilan Qur’on o‘qidi. O‘sha kishi ovozi baland bo‘lgan. Shunda Anas (r.a.) yuzidagi qora ro‘molidan yuzini ochib: “Ey bu kishi, ular (sahobalar) bunday qilmas edilar,” – dedilar. Chunki Anas (r.a.) biror yomonlikni ko‘rsa, yuzini ochar edilar.”

Shuningdek, Qur’onni baland ovozda va tarannum bilan o‘qishga qarshi chiqqanlar quyidagilardir:

- Sa‘id ibn al-Musayyab (r.a.)
- Sa‘id ibn Jubayr (r.a.)
- Qosim ibn Muhammad (r.a.)
- Hasan al-Basriy (r.a.)
- Ibn Sirin (r.a.)
- Ibrohim an-Naxa‘iy (r.a.)
- Imom Malik ibn Anas (j.a.)
- Imom Ahmad ibn Hanbal (j.a.)



Ularning barchasi Qur’onni baland ovozda o‘qish va tarannum bilan o‘qishni makruh deb bilganlar.

Sa‘id ibn al-Musayyabdan rivoyat qilinadi: u Umar ibn Abdulaziz (r.a.)ni imomlikda tarannum bilan Qur’on o‘qiyotganini eshitdi va unga xabar yubordi: “Alloh seni isloh qilsin! Imomlar Qur’onni bu tarzda o‘qimaydilar.” Shundan so‘ng Umar ibn Abdulaziz (r.a.) tarannumni tark etdilar.

Qosim ibn Muhammad (r.a.)dan rivoyat qilinadi: Bir kishi \*\*Rasululloh (s.a.v.)\*\*ning masjidida Qur’onni tarannum bilan o‘qidi. Qosim (r.a.) bunga norozilik bildirgan holda quyidagi oyatni o‘qidi:

﴿وَإِنَّهُ لِكَتَابٌ عَزِيزٌ ﴾ لَا يَأْتِيهِ الْبَاطِلُ مِنْ بَيْنِ يَدَيْهِ وَلَا مِنْ خَلْفِهِ (Fussilat: 41–42)  
“Albatta bu (Qur’on) aziz kitobdir. Unga botil oldidan ham, orqasidan ham yaqinlasha olmaydi.”

Ibn Qosim, Imom Malik (j.a.)dan rivoyat qiladi: U kishidan namozda alhon bilan o‘qish haqida so‘raldi. U zot aytdilar: “Bu menga ma’qul emas. Bu odamlar buni xuddi qo‘sish kabi aytishadi, toki bu bilan pul ishlashsin.”

Hofiz Ruzayn va Abu ‘Abdillah al-Hakim “*Navadir al-Uṣul*” asarida, Huzayfa (r.a.)dan quyidagi hadisni keltiradilar. Rasululloh (s.a.v.) dedilar: “Iqra’u al-Qur’ana bi-luhuni-l-‘Arab va-aşvatiha, va iyyakum va-luhuna ahli-l-‘ishq va-luhuna ahli-l-kitabayn. Sayaji’u qavmun ba‘di yarji‘una bi-l-Qur’ani tarji‘a-l-ghina’i va-n-nuh, la yujavizu hanajirahum, maftunatun qulubuhum va-qulubu man yu‘jibuhum sha’nuhum.”

“Qur’onni arablarning ohangida va ularning tovushlari bilan o‘qinglar. Ishq ahli ohanglari va ahli kitoblarning ohanglaridan yiroq bo‘linglar. Mening ortimdan bir qavm chiqadi, ular Qur’onni qo‘sish va yig‘i ohanglarida o‘qiydilar, (bu o‘qish)



ularning tomog‘idan o‘tmaydi.Ularning qalblari ham, bu holat yoqadiganlarning qalblari ham fitnaga mubtalo bo‘ladi.”

Imom al-Qurtubiy (j.a.) ushbu hadis asosida quyidagi xulosani chiqaradilar: “Zamonimizdagi ba’zi qorilar – xutba beruvchilar oldida va omma majlislarda xorijiy ohanglarda, ayniqla ajam (g‘arbiy/musiqiy) ohanglarda Qur’on o‘qishadi. Bu ish aynan Rasululloh (s.a.v.) tomonidan qaytarilgan holatga o‘xshaydi.”

Imom Abu Zakariyo Yahya ibn Sharaf ad-Din an-Navaviy ash-Shofī‘iy (j.a., vaf. 676-hijriy) o‘zining mashhur *“at-Tibyan fi adabi hamalati-l-Qur’an”* nomli asarida quyidagi so‘zlarni aytadi:

“Qur’oni alhon (ohang, tarannum) bilan o‘qish borasida, Imom Shofī‘iy (j.a.) ba’zi joylarda:

“Men buni makruh deb bilaman”, deb aytganlar. Boshqa joylarda esa: “Men buni makruh bilmayman,” deganlar. Bizning (shofī‘iy mazhabidagi) ulamolarimiz bu ikki xil so‘z ikkita xil qarash emas, balki tafsilotga ega deganlar:

Agar kishining tarannumi haddan oshib ketib, tajvid va qiroat qoidalarini buzsa, mana shu turdagи o‘qish makruhdır. Agar tarannum me’yordan oshmasa, u holda makruh emas, deb ta’rif bergenlar.”

So‘ngra Imom an-Navaviy (j.a.) bunday deydilar:

“Qur’oni alhon bilan o‘qishning birinchi turi – ya’ni nojoiz musiqa ohangida o‘qish – harom bo‘lgan amaldir. Bu bilan ba’zi johil odamlardan chiqqan holat bo‘lib, ular ko‘pincha janaozalarda va yig‘inlarda Qur’oni noto‘g‘ri ohangda o‘qiylilar. Bunday holat aniq harom bo‘lgan bid’at hisoblanadi. Buni tinglagan har bir kishi gunohkor bo‘ladi – buni Qoziy al-Qudot al-Mavardiyy (j.a.) ham ta’kidlagan.



Yana, bunday holatga to'sqinlik qila olgan har bir kishi, agar sukut qilsa, o'zi ham gunohga sherik bo'ladi. Men bu yo'lda qo'ldan kelgan harakatimni qilganman. Endi Alloh taoloning karamidan umid qilamanki, bu munkarni yo'qotish uchun haq egasi bo'lgan bir zotni muvaffaq qiladi va u kishini ofiyatda saqlaydi."

Shayx al-Islom Ibn Taymiyya (j.a., vaf. 728-hijriy) o'zining "*al-Istiqama*" nomli kitobida shunday deydilar:

"Qur'onne qo'shiq ohangida o'qish joiz emas. Shuningdek, unga qo'shiqda ishlataladigan musiqiy ohanglar yoki musiqa asboblarini qo'shish ham mumkin emas."

Imom ash-Sharbini – to'liq ismi Shayx Muhammad al-Hatib ash-Sharbini (vafoti 977-hijriy) – mashhur "*Mugni al-Muhtaj*" asarida shunday deydilar:

"Ogohlantirish: Qur'oni go'zal ovozda o'qish sunnatdir. Qur'on o'qishda navbatma-navbat o'qish (ya'ni, bir guruhdan bir kishi bir bo'lim o'qib, so'ng boshqasi davom ettirishi)da hech bir zarar yo'q. Oyatni qayta-qayta o'qish – tafakkur qilish uchun – ham joiz. Qur'oni jamoa bo'lib o'qish ham, ohangda o'qish ham mumkin.

Ammo agar bu ohanglarda haddan tashqari cho'zish, harakatlardan harf hosil bo'lishi, yoki ba'zi harflar tushib qolsa, u holda bu harom bo'ladi. Bunday holda o'quvchi fosiq bo'ladi, tinglovchi ham gunohga giriftor bo'ladi – chunki u Qur'onning to'g'ri o'qilishi yo'lidan chetga chiqdi. Bu "ar-Ravda"da al-Mavardiyan naql qilingan.

Shuningdek, Qur'oni tartil bilan o'qish, tafakkur qilish, o'qishda yig'lash, yaxshi ovoz egasidan tinglash, o'zaro mushohada qilish (ya'ni bir-biriga o'qib berish) sunnatdir."



Imom Ibn Qayyim al-Javziyya (j.a., vafoti 751-hijriy) "Zad al-Ma 'ad" asarida, "Rasululloh (s.a.v.) Qur'oni qanday o'qir edilar, uni qanday tinglar edilar, qanday yig'lar edilar?" degan bobda Qur'oni alhon bilan o'qish masalasini quyidagicha tafsilot bilan bayon qiladilar:

"Bu masalada qarama-qarshi ikki tomon bor. Ularning dalillari ilmiy halollik bilan taqdim etilgan.

Bu borada to‘g‘ri xulosa (fasl al-hitab) shuki:

**Qur'on tilovatida tarannum - ohangli o'qish ikki xil bo'ladi:**

1. Birinchi holat – tabiiy ravishda insonning o‘z ohangi bilan, hech qanday mashq yoki sun’iyliksiz, Qur'oni chiroyli ovozda o‘qishi. Bu hol joizdir. Bu o‘qishda kishining tabiat o‘zidan-o‘zi go‘zal ohang chiqaradi. Abu Musa al-Ash‘ariy (r.a.) Rasululloh (s.a.v.)ga aytganlar:

*"Agar siz eshitayotganingizni bilganimda, uni yanada chiroyliroq qilgan bo'lardim."*

Imom Mulla Ali al-Qari (vafoti 1014-hijriy), "al-Minah al-Fikriyya" nomli *al-Jazariy* muqaddimasiga sharh kitobida quyidagicha yozadilar:

أَفْرُوا الْقُرْآنَ بِلُحُونِ («Iqra 'u al-Qur'ana bi luhuni al-'Arab») – يا'ni: Qur'oni arablarning ohanglari bilan o'qinglar.

Bu yerda arab ohanglari deganda tabiiy, ichdan keladigan so‘zlashuvga yaqin ohanglar nazarda tutiladi. Maqbul bo‘lmaganlarning ohanglari deganda esa musiqa nazariyasidan olingan sun’iy ohanglar tushuniladi.



Bu hadisdagi amr mustahablikka (ya’ni sunnatga), nahy (man etish) esa makruhgaga dalolat qiladi, agar o‘qishda harflarning talaffuzi buzilmasa. Aks holda, harombo‘ladi.

Hadisda “Qur’on ularning halqumidan o‘tmaydi” deyilganlar – ya’ni bu odamlarda tafakkur yo‘q, amal yo‘q.

Shayx Hasanayn Muhammad Maxluf – Misr bosh muftisi – (j.a.), *"al-Qur'an al-Karim: Adabu Tilavatih va Sima 'ih"* asarida yozadilar:

“Qur’onni go‘zal ovoz bilan o‘qish mustahab – lekin bu tajvid ilmi doirasidabo‘lishi kerak.

Agar bu go‘zallik chegaradan chiqib, musiqa ohanglariga aylansa, u holda bu diniy jihatdan qoralangan, harom, buni qilgan kishi gunohkorbo‘ladi va ta’zir jazosiga loyiq bo‘ladi.”

Shayx ‘Amir as-Sayyid Uthman (j.a.) – Misrda qurra’lar shayxi – o‘zining *"Kayfa Yutallaqqa al-Qur'an"* kitobida bunday yozadilar:

“Qur’onni ashulachilar kabi ohang bilan o‘qish, musiqiy ritm va vaznlarga solish, xonandalik ohanglari bilan o‘qish – haromdir.

Bunday o‘qish Qur’onning izzati va tafakkurini kamaytiradi. Qur’on o‘qish bu muqaddas amal, qoidasi bilan o‘qilishi lozim. Bu ilohiy kalomni kulgi, o‘yin yoki ko‘ngilochar maqsadga aylantirish – xatodir.

Axir, Allohnинг kalomini o‘qish bilan, oddiy insonlar so‘zini kuylash barobar bo‘ladimi?

Xushu‘ va iymon bilan Qur’on o‘qish bilan, “aaah” degan tovushlar, musiqiy cho‘zilishlar, xush kayfiyatli o‘yinlar bir xil bo‘lishi mumkinmi?!”



## Ulamolarning bayonlariga ko‘ra xulosasi:

1. Qur’onni musiqa ohanglari va notalari bilan o‘qish – bid‘at va haromdir. Bu usulni Rasululloh (s.a.v.), sahobalar (r.a.), hatto Jibril (a.s.) ham qilmaganlar.
2. Qur’onni go‘zal ovoz bilan, arablarning tabiiy ohangida o‘qish – mustahabdir.
3. Agar kimdir Qur’onni an’anaviy musiqiy ohangda o‘qisa – harflarni cho‘zsa, ma’no o‘zgarsa, yoki tajvid buzilsa, u gunohkor bo‘ladi.

## Foydalilanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. **Mulla Ali al-Qari** *Al-Minah al-Fikriyya fi Sharh al-Muqaddima al-Jazariyya*.
2. **Shayx Hasanayn Muhammad Mahluf.** *Al-Qur'an al-Karim: Adabu Tilavatihи va Sima 'ih.*
3. **Shayx ‘Amir as-Sayyid ‘Usman.** *Kayfa Yutallaqqa al-Qur'an.*
4. **Ibn Qayyim al-Javziyya** *Zad al-Ma‘ad fi Hadyi Hayr al-‘Ibad.*
5. **Shayx Muhammad al-Hatib ash-Sharbini** *Mugni al-Muhtaj ila Ma‘rifat Ma‘ani Alfaz al-Minhaj.*
6. **Shayh al-Islam Ibn Taymiyya** *Al-Istiqamah.*
7. **Imom Yahya ibn Sharaf an-Navaviy** *At-Tibyan fi Adabi Hamalati al-Qur'an.*
8. **Hofiz Ruzayn ibn Mu‘aviya al-‘Abdariy va Abu ‘Abdillah al-Hakim an-Naysaburiy.** *Navadir al-Usul fi Aḥadis ar-Rasul.*
9. **Imom Abu ‘Abdillah al-Qurtubiy** *Al-Jami‘ li Aḥkam al-Qur'an.*
10. **Imom Abu Bakr Ibn Mujahid** *As-Sab‘ah fi al-Qira’at.*
11. **Imom Abu Bakr Ahmad ibn Muhammad ibn Harun al-Hallal** *Al-Amr bil-Ma‘ruf va an-Nahy ‘an al-Munkar.*
12. **Dr. Ayman Rushdiy Suvayd.** *Al-Bayan li Hukm Qira’at al-Qur'an al-Karim bil-Alhan.*